

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/27.09.2024.T.101.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**G‘AFUROV MIRZOHID ORIFOVICH**

**ENERGIYA ISTE’MOLI OBYEKTLARIDA “YASHIL” ENERGETIKANI  
RAG‘BATLANTIRISHNI UMUMLASHGAN ENERGIYA  
SAMARADORLIK KO‘RSATKICHI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**G‘afurov Mirzohid Orifovich**

Energiya iste’moli obyektlarida “yashil” energetikani rag’batlantirishni umumlashgan energiya samaradorlik ko’rsatkichi asosida takomillashtirish.....	3
--	---

**Гафуров Мирзохид Орифович**

Усовершенствование стимулирования «зеленой» энергетики на объектах энергопотребления на основе обобщенного показателя энергоэффективности.....	23
--	----

**Gafurov Mirzokhid Orifovich**

Improving the stimulation of “green” energy at energy consumption objects based on a generalized energy efficiency indicator .....	43
--	----

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....	47
------------------------------	----

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/27.09.2024.T.101.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**G‘AFUROV MIRZOHID ORIFOVICH**

**ENERGIYA ISTE’MOLI OBYEKTLARIDA “YASHIL” ENERGETIKANI  
RAG‘BATLANTIRISHNI UMUMLASHGAN ENERGIYA  
SAMARADORLIK KO‘RSATKICHI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5367 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.bstu.uz](http://www.bstu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sadullayev Nasullo Nematovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kadirov Kamoliddin Shuxratovich**  
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Usmonov Shukrillo Yulbarsovich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.T.101.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «25» 10 soat 10:00 da 106 xonada bo'lib o'tadi. (Manzil: Buxoro viloyati, 200100, Buxoro, ko'chasi Q.Murtazoyev, 15-uy. Tel: 998 (65) 223 28 83; e-mail: [bstu\\_info@edu.uz](mailto:bstu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (45raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 200100, Buxoro, ko'chasi Q.Murtazoyev, 15-uy. Tel: 998 (65) 223 28 83).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «08» 10 kuni tarqatildi.

(2025 yil «08» 10 dagi 2 raqamli reestr bayonnomasi).



A.I. Qarshibayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
rezidenti, texnika fanlari doktori, professor.

U.K. Mirxonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, texnika fanlari bo'yicha  
falsafa fanlari doktori, dotsent.

K.A. Samiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika  
fanlari doktori, professor.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda yoqilg‘i energetikasiga asoslangan energiya ishlab chiqarishning oshib borishi natijasida 2024 yilda atmosferaga CO<sub>2</sub>equ ajratmalarining chiqarilishi 0,8 foizga oshib, 37,8 giga tonna tashkil etdi<sup>1</sup>. Atmosferaga chiqariladigan ajratma gazlar miqdorini me'yorda ushlab turish yoki kamaytirishning eng tezkor yechimi energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish hamda “yashil” energiya manbalarini keng joriy etish hisoblanadi. Energiya manbalarning diversifikatsiyalanganligini oshirish, energiya ishlab chiqarishdagi isroflarni kamaytirish, ekologik muvozanatni barqarorlashtirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni rag‘batlantirish orqali jadallashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda energetika sohasini bozor iqtisodiyoti munosabatlariga zo‘riqishlarsiz o‘tkazish va uning natijadorligini ta’minlash, avvalo, ushbu jarayonda iste’molchilarga rag‘batlantirish yoki jarimalar berish mexanizmlari qay darajada samarador ekanligini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoxda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi iste’molchilarni “yashil” energiyadan foydalanish, ekologik, energiya xarajatlarini qisqartirish ko‘rsatkichlari va energiya manbasining diversifikatsiya hamda foydali ish koeffitsiyentlarini yagona tamoyil va mezonlar asosida baholash natijasiga ko‘ra imtiyozlar berish yoki jarimalar joriy qilish dunyo miqqosidagi muhim ahamiyat kasb etadigan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikada ishlab chiqarish korxonalarining energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida energiya ta’mnoti tizimida qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirishga doir keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldaggi PQ-57-son “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “...umumiyl quvvati 100 kWgacha bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatgan va ulardan foydalanuvchi shaxslar, ular foydalanishga topshirilgan kundan e’tiboran uch yil muddatga, soliqlarni to‘lashdan ozod etilishi ...” bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda umumlashgan energiya samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida imtiyozlar berish yoki jarimalar joriy qilishni rag‘batlantirish mexanizmini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 apreldagi O‘RQ-539-son “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni<sup>2</sup>, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 apreldagi PQ-3687-son “Qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasida investitsiya loyihibalarini amalga oshirishda oid qo‘sishimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”gi<sup>3</sup>, 2023 yil 16 fevraldaggi PQ-57-sonli “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya

<sup>1</sup> <https://www.iea.org/reports/global-energy-review-2025/co2-emissions>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-4346831>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-3713638>

tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi<sup>4</sup> Qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 2. «Energetika, energiya tejamkorlik va muqobil energiya manbalari» ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** “Yashil” energetikani rag‘batlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar xorijiy olimlardan J.Maly, D.Hulshof, K.Schell, M.Z. Jacobson, P.K.Oniemola, H.Checchi kabi olimlar tomonidan “yashil” energiyaning FiT, subsiyadalar va soliq imtiyozlarini berish, shuningdek, energetika bozoriga investitsion xavf ta’siri tahlillari bo‘yicha, vatandoshlarimizdan N.Avezova, A.Hayitmuhamedov, A.Vohidovlar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlanadirish dasturlari va istiqbollari tahlili asosida quyosh va shamol energiyasi salohiyatini baholab, mavjud siyosat va rag‘batlantirish choralari haqida tadqiqotlar olib borilgan.

Energiya iste’moli obyektining umumlashgan energiya samaradorlik ko‘rsatkichini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar xorijiy olimlardan E.Worrel, W.König, D.Spreng, M.V.Gluxova, J.Nekrasova, O.G.Drujinina, V.V.Litvak, R.A.Kazakov, V.S.Mokrousov, I.Kozlov, V.S.Bogachev, O.Balandina, I.V.Alenkova, V.I.Stryajev, T.G.Pospelova, T.V.Romankova, M.N.Grinevichlar tomonidan olib borilgan. Bizning mamlakatimizda K.R.Allayev, N.N.Sadullayev, M.B.Bozorov tomonidan umumlashgan energiya samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Respublikada energiya ta’midotida energiya to‘lovlari ta’riflarini optimallashtirish orqali energiya samaradorlikni oshirish borasida yetakchi olimlarimizdan K.R.Allayev, X.M.Muratov, F.A.Xoshimov, A.D.Taslimov, N.N.Sadullayev, K.Sh.Kadirov va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va ijobiy natijalarga erishilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya institutida amalga oshirilayotgan “Sanoat korxonasi “intellektual” elektr tarmog‘ini elektr ta’moti tizimini umumlashgan samaradorlik ko‘rsatkichi asosida yaratish nazariyasini rivojlanadirish (2017-2020), mavzusidagi fundamental loyihasi va Buxoro davlat texnika universitetining “Energiya iste’moli obyektlarini “yashil” energetikaga o‘tkazishda samarador rag‘batlantirish tizimini yaratish va joriy qilish” (2025-2026) mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** energiya iste’moli obyektlarida “yashil” energiyadan foydalanish samaradorligini kompleks baholovchi yagona umumlashgan energiya samaradorlik ko‘rsatkichini ishlab chiqish asosida “yashil” energiyadan foydalanishni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish.

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs/-6385716>

## **Tadqiqot vazifalari:**

rivojlangan davlatlarda “yashil” energiyadan foydalanishda erishilgan yutuqlar tahlili asosida O‘zbekistonda “yashil” energiyadan foydalanish istiqbollari va imkoniyatlarini aniqlash;

energiyadan foydalanishni umumlashgan samaradorlik ko‘rsatkichini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar tahlili asosida uning samaradorligini belgilovchi yagona ko‘rsatkichni tashkil etuvchilarini aniqlash;

energiya iste’moli obyektining “yashil” energiyadan foydalanish samaradorligini kompleks baholash imkonini beruvchi gibridda energiya manbali avtonom mikrotarmoq modelini ishlab chiqish;

“yashil” energiya manbalarining quvvatga bog‘liqligi asosida umumlashgan samaradorlik ko‘rsatkichi tashkil etuvchilarining soni, sarflanish tartibi va vazn koeffitsiyenti ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish;

energiya iste’moli obyektlarida “yashil” energiyadan foydalanishni umumlashgan samaradorlik ko‘rsatkichi asosida rag‘batlantirish tizimini joriy etishni ilmiy asoslash va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** “yashil” energiya manbalari o‘rnataladigan energiya iste’moli obyektlari va “yashil” energiyadan foydalanishni rag‘batlantirishning me’yoriy huquqiy hujjatlari.

**Tadqiqotning predmeti** “yashil” energiyadan foydalanishning samaradorlik ko‘rsatkichlari, ularni oshirish va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida energiya samaradorlik nazariyasining zamonaviy usullari, ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlash, matematik statistika, matematik modellashtirish, mahsulotni energiya samaradorligi va sig‘imdorligini aniqlash, ishlab chiqilgan matematik modellarda olingan natijalarini statistik va analitik hisoblash usullaridan foydalanilgan, korrelyatsion tahlil, nisbiy me’yorlash, ko‘rsatkichlarni navbatlanish tartibini Fishbern usullaridan foydalanilgan.

## **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

energiya iste’moli obyektlarida “yashil” energiyadan foydalanishda energiya manbalarini hisobga olgan holda gibridda energiya manbali avtonom mikro tarmoq modeli ishlab chiqilgan;

gibridda energiya manbasini atrof-muhitga ta’sirini hisobga olgan holda baholash imkonini beruvchi umumlashgan samaradorlik ko‘rsatkichi ishlab chiqilgan;

zamonaviy energiya ta’minoti tizimiga qo‘yiladigan talablar asosida “yashil” energiyadan foydalanish afzalliklarini tavsiflovchi energiya manbasining foydali ish va energiya xarajatlarini qisqartirish koeffisientlari hamda yashil energiyadan foydalanish, ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan;

umumlashgan samaradorlik ko‘rsatkichi tashkil etuvchilarining soni, saflanish tartibi va vazn koeffisientlari qiymati ushbu ko‘rsatkichlarni “yashil” energiya manbai quvvatiga chiziqli bog‘liqligi darajasiga ko‘ra ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan umumlashgan samaradorlik ko‘rsatkichi asosida energiya iste’moli obektlarida “yashil” energiyadan foydalanganda iqtisodiy samaradorlikni

ta'minlovchi takomillashtirilgan rag'batlantirish imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

“yashil” energiyadan foydalanish samaradorligini to‘larq va aniqroq belgilovchi umumlashgan samaradorlik ko‘rsatkichi ishlab chiqilgan;

energiya iste’moli obyektlarini “yashil” energiyadan foydalanishga o‘tishning samaraliroq rag’batlantirish tizimi ishlab chiqilgan;

energiya iste’moli obyektlariga imtiyoz va jarimalar ularning energiyadan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlariga mutanosib belgilashni ta’minlovchi matematik ifodalar tavsiya etilgan;

joriy etilgan rag’batlantirish tizimi energiyaga to‘lovlarni qo‘sishma qisqartirish va “yashil” energiya manbalariga sarflangan xarajatlarni tezroq qoplash imkonini berishi asoslangan;

ishlab chiqilgan rag’batlantirish tizimini joriy etish energiya resursslarni tejash, atrof–muhitni ifloslanishini kamaytirish va energiya samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirish imkoniyatini berishi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari ishonchliligi matematik modellashtirish, statik ma'lumotlarni matematik qayta ishslash, eksperimental ma'lumotlarni qayta ishslashning statistik usullarni joriy etish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati iqtisodiyotda umumlashgan energiya samaradorlik ko‘rsatkichini qo‘llash turli sohalardagi ishlab chiqarish korxonalarini “yashil” energiyadan foydalanish samaradorligini kompleks va aniqroq belgilash hamda samaraliroq rag’batlantirish tizimini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Bu korxona energiya ta’moti tizimini modernizatsiyalash bo‘yicha aniqroq tavsiyalar ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati elektr iste’moli rejimlarini umumlashgan ko‘rsatkichlar asosida tavsiya qilingan rag’batlantirish mexanizmlari “yashil energetika”ga o‘tish jarayonlarini jadallashtiradi hamda elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini ekspress kompleks baholash imkonini berishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Energiya iste’moli obyektlarida “yashil” energetikani rag’batlantirishni umumlashgan energiya samaradorlik ko‘rsatkichi asosida takomillashtirish bo‘yicha amalgalash oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida:

“Yashil” energiyadan foydalanayotgan korxonalarda umumlashgan energiya samaradorlik ko‘rsatkichi aniqlash imkonini beradigan matematik model va universal algoritm asosida elektron hisoblash mashinasi uchun yaratilgan dastur “Bukhara Azteks” MChJ da joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2025 yil 21 maydagi 04-13-2757-sodan ma'lumotnomasi). Natijada taklif etilayotgan “yashil” energiyani rag’batlantirish metodikasi joriy etilib, “Bukhara Azteks” MChJ korxonasi 56234700 (ellik olti million ikki yuz o‘ttiz to‘rt ming etti yuz) so‘m imtiyozga ega bo‘lgan;

“Bukhara Azteks” MChJ va “Posco International Textile” xorijiy korxonasida bug‘ va isitish qozonlarining tutun gazlar tarkibi Testo 320 gaz analizatori yordamida tahlil qilinib, mazkur korxonalarda ekologik ko‘rsatkichning taklif etilgan uslubiyoti joriy etildi (O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2025 yil 21 maydagi 04-13-2757-son ma’lumotnomasi). Natijada tutun gazlar tarkibidagi kislorod miqdori optimallashtirildi va mos ravishda yillik  $5204\text{ m}^3$  va  $2642\text{ m}^3$  tabiiy gaz tejashga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 11 ta xalqaro ilmiy–texnik konferensiyalarda, jumladan 8 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 8 ta ilmiy maqolalar, jumladan 6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop ettirilgan, shuningdek O‘zR Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan yaratilgan EHM darsturiga 3 guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Dissertatsiyaning kirish qismida** o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati assoslangan, olib borilgan tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Energiya samaradorlik ko‘rsatkichlarini yagona ko‘rsatkichga umumlashtirish tadqiqotlari tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida energiya samaradorligini oshirishda, energiya resurslaridan foydalanishni va energiya ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirishning xorijiy rivojlangan davlatlar kesimidagi “yashil” energiyani rivojlantirish borasida olib borilgan tadqiqotlarning hozirgi holati tahlil qilingan.


Bu tadqiqotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki qo‘llanishga qulay, o‘lchash imkoniyati bor ko‘rsatkichlardan tashkil topgan, umumlashtirish metodikasi izchil va aniq hamda barcha sohalarda qo‘llash imkoniyati bo‘lgan yagona umumlashtirilgan samaradorlik ko‘rsatkichiga zaruriyat mavjud. Ushbu ko‘rsatkich asosida turli korxonalarni va sohalarni energiya samaradorlik ko‘rsatkichi bo‘yicha tasniflash mumkin va ushbu tasniflash natijalari bo‘yicha korxonalarga imtiyozlar yoki jarimalar berib energiya tejamkorlikni rag‘batlantirish mumkin.

O‘rganilgan tadqiqot ishlari, olib borilgan ilmiy va amaliy ishlar tahlili asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Xorijiy davlatlar tajribasi asosida “yashil” energiyani**

**rivojlantirish tamoyillarini va matematik asoslarini ishlab chiqish**” deb nomlangan ikkinchi bobida rivojlangan xorijiy davlatlarda “yashil” energiyani rivojlantirish va ularning eng yaxshi ko‘rsatkichlarini integratsiyalash bo‘yicha erishilgan natijalar tahlili asosida “yashil” energiyadan foydalanish samaradorligini kompleks tahlil qiluvchi va baholovchi umumlashgan samaradorlik ko‘rsatkichining tashkil etuvchi koeffitsiyentlari aniqlangan hamda ularni umumlashtirish uchun bir o‘lchov birlikka keltirilgan.

“Yashil” energiyadan foydalanishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri energiya iste’moli obyektining (EIO) atrof-muhitga yetkazgan zararni tavsiflovchi ko‘rsatkich bo‘lib, ko‘pincha energiya manbalari EIO dan tashqari markazlashgan tarmoqqa joylashgani uchun ushbu ko‘rsatkichni hisoblash ancha qiyinchiliklar tug‘diradi. Shuning uchun tadqiqot ishida umumlashgan samaradorlik ko‘rsatkichini aniqlashda energiya iste’moli obyektlaridagi barcha energiya (elektr, issiqlik, QTEM va boshqa) manbalarini o‘z hududida mujassamlashtirgan gibridda energiya manbasiga keltirilgan holda o‘rganiladi va obyekt energiya ta’minoti tizimini avtonom mikro energiya tarmog‘i sifatida qarash va shu asosda uning samaradorligini aniqlash g‘oyasini ilgari surilgan. Ushbu g‘oya natijasida energiya iste’moli obyektining yagona energiya samaradorlik ko‘rsatkichini hisoblash uchun uning gibridda energiya manbali avtonom mikro tarmoq ko‘rinishidagi modeli taklif etilgan va uni texnik parametrlarini aniqlash tartibi ishlab chiqilgan. 1 va 2 – rasmlardada esa ushbu tarmoqning tuzilmaviy sxemasi aks ettirilgan.



**1-rasm. Energiya iste’moli obyektining gibridda energiya manbasi tarkibiy energetik qurilmalari**

Gibridda elektr va issiqlik energiyasi manbasi 2 turdagи energiya manbalardan: qayta tiklanmaydigan va qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan tashkil topgan. Qayta tiklanmaydigan energiya manbalariga korxona hududiga keltirilgan (hisobiy) tarmoq elektr (issiqlik) stansiyasi, korxonaning xususiy elektr (issiqlik) stansiyasi, dizel generatorlar va boshqalar kiradi. Korxona hududiga keltirilgan elektr yoki issiqlik manbaining ko‘rsatkichlari iste’mol qilingan elektr yoki issiqlik energiyasi orqali aniqlanadi. Ya’ni, ushbu energiya manbasining yillik ishlab chiqargan energiyasi korxona iste’mol qilgan yillik energiyasiga teng bo‘ladi. Korxona energiya iste’molini atrof-muhitga ta’sirini aniqlashda faqat energiya resurslardan foydalanuvchi energiya manbalari ishlab chiqargan energiya hisobga

olinadi.

EIO da iste'mol bo'lgan elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi yoqilg'i sarfi 1 kW·h elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun sarflangan yoqilg'i miqdori-  $R_o$  bilan quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$R_o = \frac{R_{es}}{E} \quad (1)$$


bu yerda:  $R_{es}$  – elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun umumiyoqilg'i sarfi (masalan, GJ yoki kg shartli yoqilg'i),  $E$  – ishlab chiqarilgan yoki iste'mol qilingan elektr energiyasi (kW·h).  $R_o$  – birlik miqdordagi elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun sarflangan yoqilg'i miqdori.

Agar korxonada boshqa turdag'i qayta tiklanmaydigan energiya resurslardan foydalanib elektr energiyasi ishlab chiqarilsa shu tartibda sarflangan yoqilg'i miqdori aniqlanadi. Aniqlangan yoqilg'i turlariga qarab atrof-muhitga chiqarilgan zararli chiqindilar hisoblanadi.

Korxona tashqaridan markazlashgan issiqlik tarmog'idan issiqlik energiyasi olsa u ham elektr energiya kabi korxona hududidagi qozonxonada ishlab chiqarilgan deb qabul qilinadi. Ushbu qozonxonadagi yoqilg'i sarfi 1 kJl issiqlik energiyasi ishlab chiqarish uchun sarflangan yoqilg'i miqdoriga qarab quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$R_{is} = T_{ie} \cdot R_o \quad (2)$$

bu yerda:  $T_{ie}$  – korxonaning yillik iste'mol qilgan issiqlik energiyasi, kJl;  $R_o$  – birlik miqdordagi issiqlik energiyasini ishlab chiqarish uchun sarflangan yoqilg'i miqdori, gr/kJl.



**2-rasm. Gibriddi energiya manbasining tarkibiy energetika qurilmalari.**

Korxona hududiga yetkazib berilgan tarmoq issiqlik manbasining yoqilg'i sarfi, undan olingan issiqlik energiyasini ishlab chiqarish jarayonida sarflangan yoqilg'i miqdori asosida aniqlanadi.

Keyingi bosqichda elektr energiyasini ishlab chiqarishda atrof-muhitga chiqarilgan zararli moddalar miqdori aniqlanadi. Bu miqdor birlik miqdordagi

yoqilg‘i yonganda ajralib chiqadigan zararli moddalar miqdori bilan quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$CO_2 = R_{es} \cdot m_{CO_2} \quad (3)$$

bu yerda:  $R_{es}$  – korxonaning yillik elektr energiyasiga to‘g‘ri keladigan yoqilg‘i-resurs miqdori, t.sh.yo;  $m_{CO_2}$  – birlik miqdordagi yoqilg‘i yonganda ajralib chiqadigan zararli moddalar miqdori.

Ishlab chiqilgan energiya iste’moli obyektining avtonom mikro tarmoq modeli nafaqat mavjud obyektlarni energiya samaradorligini to‘laqonli baholash va tasniflash imkoniyatini beradi, balki zamonaviy energiya ta’minoti tarmoqlarini belgilangan energiya samaradorlik ko‘rsatkichlari doirasida loyihalashni amalgaloshirishni ham ta’minlaydi. Barcha sanoat korxonalarini ushbu modelga keltirish va yagona uslubiyot asosida energiya samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash va natijalar asosida iqtisodiyot sohalarni energiya samaradorligi bo‘yicha tasniflash imkonini beradi. Ushbu umumlashgan ko‘rsatkichlarni energetik tadqiqotlarida ham korxonaning energiya samaradorligini oshirish imkoniyalarini har tomonlama o‘rganish va aniqlash uchun ham qo‘llash mumkin.

Hozirgi kunda ishlab chiqarish korxonalarida asosiy energiya samaradorlik ko‘rsatkichi sifatida mahsulotning energiya sig‘imi qiymati olinadi va u quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$E_o = \frac{W_{EE,y} + W_{IE,y} + W_{yoq,y}}{P_y} \quad (4)$$

bu yerda:  $W_{EE,y}$ ,  $W_{IE,y}$  va  $W_{yoq,y}$  – muvofiq ravishda shartli yoqilg‘i birligiga keltirilgan yillik iste’mol qilingan elektr va issiqlik energiyasi hamda boshqa turdag'i (benzin, ko‘mir va h.k.) yillik iste’mol qilingan yoqilg‘i miqdori.

Ushbu ko‘rsatkich energiya manbasi turiga, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo‘srimcha qiymatga bog‘liq bo‘lmagan tufayli atrof-muhitni ko‘p ifloslantiruvchi arzon mahsulotlar keng ishlab chiqarilmoqda. Tadqiqot ishida energiya samaradorlikni barcha ko‘rsatkichlarini qamrab olgan umumlashgan ko‘rsatkichdan (USK) foydalanish afzalliklari asoslangan.

Avtonom mikrotarmoq tarkibiga kiruvchi energiyani ishlab chiqaruvchi, uzatuvchi va iste’mol qiluvchi elementlarning ish samaradorligini tavsiflovchi kattaliklar aniqlangan va umumlashtirish uchun qulay ko‘rinishga (nisbiy birliklarga) keltirilgan. Barcha ko‘rsatkichlar EIO ni “yashil” energiyadan foydalanish samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, ular zamonaviy energiya ta’minoti tizimiga qo‘ylgan talablar asosida aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Energiya iste’moli obyektini umumlashgan energiya samaradorlik ko‘rsatkichini aniqlash”** deb nomlangan uchinchi bobida, energiya iste’moli obyektining umumlashgan samaradorlik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda zamonaviy energetika tizimiga qo‘yladigan quyidagi talablar e’tiborga olingan, ya’ni

- Energiya ishlab chiqarishda yoqilg‘i energiya resurslardan foydalanish salmog‘ini kamaytirish bilan “yashil” energetikadan foydalanish salmog‘ini oshirish;
- Energiya manbasining umumiyl FIK maksimal bo‘lishi yoki energiya


ishlab chiqarishda isroflarni minimal bo‘lishi;

- Energiya ishlab chiqarishda atrof-muhitga yetkaziladigan zarar yoki ekologik ta’sir indeksi minimal bo‘lishi;

- Energiya ishlab chiqarishda birlik miqdordagi energiyaga to‘g‘ri keladigan qo‘sishimcha qiymatning maksimal bo‘lishi;

- Energiya ta’minoti ishonchligi va energiya manbalarining diversifikatsiyalanganligi.

Ushbu talablarga javob beradigan, gibrid energiya manbasining, energiya uzatish tizimining va energiya iste’moli jarayonidagi energiya samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlandi (3-rasm, 1-jadval). Barcha samaradorlik indikatorlari yagona ko‘rsatkichga umumlashtirish uchun ular o‘lchov birligisiz (nisbiy birlikda) keltiruvchi matematik ifodalari ishlab chiqildi.



**3-rasm. “Yashil” energiya samaradorligini aniqlovchi umumlashgan energiya samaradorlik ko‘rsatkichlarining tashkil etuvchilarini.**

**1-jadval**

**EIO larni gibrid energiya manbali avtonom mikro energiya tarmog‘ini tarkibiy qism**

Nº	Ko‘rsatkich nomi	Energiya manbai	Energiyani uzatish	Energiya iste’moli	Energiya iste’moli obyekti
1.	“Yashil” energiyadan foydalanish ko'rsatkichi	+	-	-	+
2.	EIOning energiya iste’molining FIK	+	+	-	+
3.	EIOning ekologik samaradorlik ko'rsatkichi	+	-	-	+
4.	EIOning energiya xarajatlarini qisqartirish koeffitsiyenti	+	-	-	+
5.	EIO manbasi diversifikasiya koeffisiyenti	+	+	+	+
	Umumlashgan energiya samaradorlik ko'rsatkichi	+	+	+	+

1-jadvalda berilgan taqsimotga muvofiq, har bir ko'rsatkich ham elektr energiyasi, ham issiqlik energiyasining manba, uzatish tizimi va iste'mol jarayonlari uchun alohida hisoblandi. Quyidagi formulalar umumlashgan energiya samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash uchun ishlab chiqildi.

EIO dagi energiya ta'minotining barcha bosqichlaridagi matematik o'zgartirishlardan so'ng umumlashgan samaradorlik ko'rsatkichining tashkil etuvchi koeffitsiyentlari quyidagi yakuniy ko'rinishga keltirilgan.

“Yashil” energiyadan foydalanish ko'rsatkichi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$K_{y.e.f} = \frac{E_{y.e.f}}{E_{y.e.f} + E_t} \quad (5)$$

bu yerda:  $E_{y.e.f}$  – “yashil” energiya manbalaridan foydalanib, iste'mol qilingan energiya miqdori, kW·h;  $E_t$  – an'anaviy energiya manbalaridan iste'mol qilingan energiya miqdori, kW·h.

EIONing energiya iste'molining foydali ish koeffitsiyentini hisoblashda energiya ta'minoti tizimidagi faqat to'lov qilinadigan isroflar hisobga olingan bo'lib quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$K_\eta = \frac{E_{y.e.f} + E_t}{E_{y.e.f} + \frac{E_t}{\eta_i} + \Delta E_{isr}} \quad (6)$$

bu yerda:  $\Delta E_{isr}$  – to'lov qilingan energiya isroflari miqdori, kW·h;  $\eta_i$  – an'anaviy energiya manbalarining foydali ish koeffitsiyenti.

Ushbu ko'rsatkichdan faqat “yashil” energiyadan foydalanish samaradorligini aniqlashda foydalaniladi.

EIONing energiya iste'molining ekologik samaradorlik ko'rsatkichi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$K_{Eko} = 1 - \frac{E_t \cdot K_{CO_2}}{(E_{y.e.f} + E_t) \cdot K_{ko'm}} \quad (7)$$

bu yerda:  $K_{CO_2}$  – turli xil yoqilg'i yonganda ajralib chiqadigan emission faktor miqdori, kW·h/kg·CO<sub>2</sub>equ;  $K_{ko'm}$  – ko'mir yoqilg'isi yonganda ajralib chiqadigan emission faktor miqdori, kW·h/kg·CO<sub>2</sub>equ.

Xalqaro amaliyotda foydalanib kelinayotgan bir birlikdagi mahsulotni ishlab chiqarishda atrof muhitga yetkazilgan zarar ko'rsatkichi o'lchov birligi bo'lgani va yashil energiya manbai quvvati keng diapazonda o'zgarganda juda kam miqdorda o'zgarishi tufayli umumlashtirishda qo'llanilmadi.

EIONing energiya iste'molining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$K_{Eko} = 1 - \frac{P_{o'r.t} \cdot T_{max} \cdot C_{ee} + P_{y.e.f} \cdot (Z_{o.y.e.f} - W_{o.y} \cdot (C_{ee} + C_{o.eko}))}{W_{yil} \cdot C_{ee}} \quad (8)$$

bu yerda:  $P_{o'r.t}$  – EIONing o'rtacha quvvat iste'moli, kW;  $T_{max}$  – EIONing yillik ish soati,  $C_{ee}$  – energiya to'lov qiymati, so'm;  $P_{y.e.f}$  – “yashil” energiya manbaining o'rnatilgan quvvati, kW;  $C_{o.eko}$  – ekologik zarar to'lov qiymati, so'm /kW·h;  $W_{o.y}$  – 1 kW quvvatli “yashil” energiya manbasining yillik ishlab chiqaradigan energiya

miqdori, soat/yil;  $Z_{o.y.e.f} - 1 \text{ kW}$  quvvatlari “yashil” energiya manbalarini kapital va o‘rnatishning keltirilgan yillik xarajatlari qiymati, so‘m.

EIONing energiya iste’molining diversifikatsiya koeffitsiyenti quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$K_D = \frac{\sum_{n=1}^n P_i - P_{i.\max}}{P_{es}} \quad (9)$$

bu yerda:  $n$  – energiya manbalari soni, dona;  $P_i$  – energiya iste’molida ishtirok etayotgan energiya manbai yoki zahiralash qurilmasining nominal quvvati, kW;  $P_{i.\max}$  – maksimal quvvatlari energiya manbai quvvati, kW;  $P_{es}$  – EIONing yillik o‘rtacha iste’mol quvvati, kW.

EIO larda “yashil” energiya manbalarini bosqichma–bosqich joriy etganda taklif etilgan samaradorlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasi nazariy tadqiqotlarda o‘rganildi. Iste’mol quvvati 1000 kW bo‘lgan gibrid energiya manbalari energiya Iste’moli obyektining avtonom mikro tarmog‘i modelida nazariy tadqiqotlar olib borildi. Bunda iste’mol obyektida “yashil” energiya manbalari o‘rnatilgan quvvatining o‘zgarib borishi ishlab chiqilgan koeffitsiyentlarda qanday o‘z aksini topishi tahlil qilindi. Samaradorlik ko‘rsatkichlarining “yashil” energiya manbalari quvvati o‘zgarishiga bog‘liqligi korrelyatsion tahlil metodlari asosida tadqiq qilindi.

Tadqiqotda “yashil” energiya manbasi sifatida quyosh elektr stansiyasi olingan bo‘lib uning o‘rnatilgan quvvati o‘zgarishining energiya samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’sir dinamikasi o‘rganildi (2-jadval).

**2-jadval**  
**“Yashil” energiyadan foydalanish samaradorlik ko‘rsatkichlarining korrelyatsion tahlil natijalari**

<b>P<sub>t</sub>, kW</b>	<b>P<sub>qt</sub>, kW</b>	<b>K<sub>y.e.f</sub></b>	<b>K<sub>η</sub></b>	<b>K<sub>eko</sub></b>	<b>K<sub>e.x.q</sub></b>	<b>K<sub>D</sub></b>
<b>1000</b>	0	0	0,4	0,61	0	0,2
<b>1000</b>	100	0,08	0,42	0,64	0,1	0,3
<b>1000</b>	200	0,15	0,44	0,67	0,15	0,4
<b>1000</b>	300	0,23	0,46	0,70	0,23	0,5
<b>1000</b>	400	0,31	0,49	0,73	0,30	0,55
<b>1000</b>	500	0,39	0,52	0,76	0,38	0,6
<b>1000</b>	600	0,46	0,55	0,79	0,45	0,65
<b>1000</b>	700	0,54	0,58	0,82	0,53	0,7
<b>1000</b>	800	0,62	0,63	0,85	0,6	0,75
<b>1000</b>	900	0,70	0,67	0,88	0,68	0,8
<b>1000</b>	1000	0,77	0,73	0,91	0,76	0,85
<b>Korrelyatsiya koeffitsiyenti -r</b>		<b>0,999</b>	<b>0,995</b>	<b>0,986</b>	<b>0,998</b>	<b>0,983</b>

Korrelyatsion tahlil natijalari asosida ko‘rsatkichlarni soni, saflanish tartibi va vazn koeffitsiyentlari quyidagi ko‘rinishda aniqlandi:

$$K_{um} = \frac{5}{15} \cdot K_{y.e.f} + \frac{4}{15} \cdot K_{iqt} + \frac{3}{15} \cdot K_{\eta} + \frac{2}{15} \cdot K_{Eko} + \frac{1}{15} \cdot K_D \quad (10)$$


(10) ifoda asosida analitik tadqiqotimizning turli quvvatlarda o‘rnatilgan quyosh elektr stansiyasini korxonaning umumlashgan energiya samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlashda foydalamiz.

### 3-jadval

#### Analitik tahlilda umumlashgan samaradorlik ko‘rsatkichlari


<b>P<sub>qt</sub>, kW</b>	0	100	200	300	400	500	600	700	800	900	1000
<b>K<sub>um</sub></b>	0,17	0,23	0,30	0,36	0,42	0,47	0,53	0,59	0,66	0,72	0,78

2 va 3 – jadval natijasida EIO da “yashil” energiya manbalari quvvatini o‘zgarishining ko‘rsatkichlarga ta’sirini belgilovchi egriliklar 4-rasmida keltirilgan.



#### 4-rasm. EIO da “yashil” energiya manbalari quvvatini samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’siri.

Ushbu o‘zgarishlar natijasida taklif etilgan rag‘batlantirish tizimida energiya to‘lovlarining kamayishi 5–rasmda ko‘rsatilgan.



#### 5-rasm. Taklif etilagan rag‘batlantirish tizimini energiya to‘lovlariga ta’siri dinamikasi.

EIO da “yashil” energiya manbalaridan foydalanmaganda faqat “yashil” energiyadan foydalanish koeffitsiyenti nolga teng bo‘ladi. Qolgan samaradorlik koeffitsiyentlarini boshqa yo‘llar bilan ham oshirish mumkin. Shuning uchun ushbu keffitsiyentga eng katta vazn koeffitsiyenti berildi. Vazn koeffitsiyentlari Fishbern formulasi asosida hisoblandi.

$$K_{mex} = \sum_{n=1}^n \alpha_i \cdot K_i \quad (11)$$

bu yerda: - GEM AMET ning  $n$ - samaradorlik koeffitsiyentining tartib raqami;  $\alpha_i$  - ko‘rsatkichning ahamiyatlik darajasini belgilovchi vazn koeffitsiyenti;  $i$ -samaradorlik koeffitsiyentini saflanishdagi tartib raqami.

Ushbu koeffitsiyent EIO da “yashil” energiya manbalarini joriy etish samaradorligini joriy qiymatini aniqlaydi. “Yashil” energiya manbalarini joriy qilishni rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish uchun “ideal yashil energiya Iste’molchisi”, ya’ni energiya Iste’moli 100% “yashil” energiya manbasidan ta’minlanuvchi obyektning ko‘rsatkichlari va umuman “yashil” energiyadan foydalanmaydigan obyektning ko‘rsatkichlari asosida aniqlanadi. Rag‘batlantirish chegarasini aniqlash uchun USK ning me’yoriy qiymati ko‘rsatkichlarning me’yoriy qiymatlari mavjud bo‘lganda ushbu qiymatlardan foydalanib yoki ushbu ko‘rsatkichning maksimal va minimal qiymatlarining o‘rtacha qiymati orqali quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{EIO.M} = \frac{K_{EIO.\max} - K_{EIO.\min}}{2} \quad (12)$$

Agar USK ning joriy qiymati me’yoriy qiymatdan kichik bo‘lsa jarima, agar me’yoriy qiymatdan katta bo‘lsa energiyaga to‘lov larga chegirma beriladi. Jarima va chegirmaning qiymati quyidagi ifodadan aniqlanadi.

$$\Delta W_{int} = C_{ee} \cdot E_{kor} \cdot (K_{EIO.J} - K_{EIO.M}) \quad (13)$$


Tadqiqot natijalari 4-jadvalda keltirilgan. Jadvalning 7-ustunida jarimalar va 8-ustunida esa chegirmalar (rag‘bat) keltirilgan. Yakuniy iqtisodiy samaradorlik 5-rasmida keltirilgan.

#### 4-jadval

